

# TOSHKENT HAQIQATI

1928-yil 11-dekabrda asos solingan

@haqiqatonline\_24 Haqiqat online haqiqatonline\_

## Тошкент вилояти: ОБОДЛИК ВА ТАРАҚҚИЁТ

## ЛОКАЦИЯСИ



Зойир МИРЗАЕВ,  
Тошкент вилояти ҳоқими,  
сенатор

### Ислоҳот

Бугун Тошкент вилоятига келган киши Янги Ўзбекистондаги ислоҳотларнинг асл мазмун-моҳияти ва самараларини тўла ҳис этиши, шубҳасиз.

Тошкент воҳаси азалдан Буюк Ипак йўлидаги қадим тамаддунлар чорраҳаси бўлиб келгани тарихдан яхши маълум. Яратганининг назари тушган бу заминда Соҳибқирон бобомиз Амир Темур, улуғ аждодимиз Заҳриддин Муҳаммад Бобурнинг қутлуғ излари қолган.



4



### Бунёдкорлик

## "АҚЛЛИ ШАҲАР"НИНГ ЗАМОНАВИЙ МАҲАЛЛАСИ

Нурафшон шаҳри бугун нафақат Тошкент вилоятининг маъмурий маркази, балки "Обод маҳалла, обод кўча, обод хонадон" тамойили асосида замонавий урбанистик ёндашувлар, "ақлли шаҳар" концепцияси ва инсон қадрини устувор қўйган ислоҳотлар ҳаётга изчил татбиқ этилаётган ҳудуд сифатида яққол кўзга ташланмоқда. Айниқса, маҳаллаларни ободонлаштириш, аҳоли учун қулай ва муносиб яшаш муҳитини яратиш, ижтимоий инфратузилмани ривожлантириш ҳамда хизматлар сифатини оширишга қаратилган ишлар шаҳар қиёфасида ҳам, аҳоли турмуш тарзида ҳам ўзининг аниқ ифодасини топмоқда.

(Давоми 2-саҳифада)

2

## Маданият ва спорт уйғунлашган маскан

### Тухфа



Ангрен шаҳрининг Мирзо Улуғбек номли маҳалласида Янги Ангрен маданият ва спорт саройининг тантанали очилиш маросими бўлиб ўтди.

Унда Республика ишчи гуруҳи аъзолари, вилоят ҳоқими ва шаҳар ҳоқимлиги масъуллари, мутасадди ташкилотлар раҳбарлари, маҳалла аҳолиси, нуронийлар, турли миллат вакиллари, миллий-маданий марказлар фаоллари ҳамда кенг жамоатчилик вакиллари иштирок этишди.

2



### Ҳоқимлик соати

## Аҳоли муурожаати ҳар бир раҳбарнинг кун тартибидаги энг устувор масала бўлиши шарт

Вилоят ҳоқими Зойир Мирзаев раҳбарлигида ўтказилган навбатдаги "Ҳоқимлик соати"да бир қатор долзарб масалалар атрофлича муҳокама қилинди.

Унда вилоят ҳоқимлиги мутасадди раҳбарлари, ташкилот ва бошқармалар масъуллари, туман ва шаҳар ҳоқимлари ҳамда тегишли соҳа вакиллари иштирок этишди.

Йиғилиш аввалида Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармон ва қарорлари, шунингдек, мажлис баёнларида кўзда тутилган топшириқлар ижроси юзасидан масъулларнинг ҳисоботлари тингланди.

Амалга оширилаётган ишлар чуқур таҳлил қилиниб, айрим йўналишларда мuddатда бажарилмаган вазифалар танқидий муҳокама этилди.

Топшириқлар ижросига лоқайд ёндашган мутасаддилар кескин огоҳлантирилиб, келгусида бундай ҳолатларга йўл қўймаслик юзасидан аниқ кўрсатмалар берилди.

Кун тартибига мувофиқ аҳоли муурожаатлари билан ишлаш ҳолати ҳам батафсил кўриб чиқилди. Таъкидланганидек, вилоятда ушбу йўналишда қатор камчиликлар сақланиб қолмоқда.

2

# Аҳоли мурожаати ҳар бир раҳбарнинг кун тартибидagi энг устувор масала бўлиши шарт



Хусусан, айрим масъул раҳбарлар томонидан фуқароларнинг мурожаатларига етарлича эътибор қарилмаётгани, улар ўз вақтида қуриб чиқилмагани натижасида такрорий

(Давоми. Бошланиши 1-саҳифада)

мурожаатлар сони ортиб бораётгани кайд этилди.

Бу эса, ўз навбатида, республика даражасида вилоят кўрсаткичларининг пасайишига сабаб бўлаётгани алоҳида таъкидланди.

“Ҳар бир мурожаат ортида инсон

тақдири, унинг дарди ва умиди туради. Бугун дардини айтиб келган одамнинг масаласи ҳал бўлмаса, эртага бошқа жойда айтади, ижтимоий тармоққа чиқади, танқид қилади. Ичида қолиб кетмайди, барибир айтади улар. Шунинг учун аҳоли мурожаати ҳар бир раҳбарнинг кун тартибидagi энг устувор масала бўлиши шарт”, – деди Зойир Мирзаев.

Йиғилиш давомида ўз фаолиятида жиддий камчиликларга йўл қўйган айрим масъуллар эгаллаб турган лавозимидан озод этилди. Бир қатор раҳбарларга ҳайфсан интизомий жазоси қўлланилди, айримларига эса қатъий оғоҳлантириш берилди.

Шунингдек, йиғилишда бириктирилган ёшлар билан ишлаш сама-

радорлиги, уларнинг бандлигини таъминлаш, муаммоларини ўрганиш ва ҳал этиш борасидаги ишлар ҳам танқидий таҳлил қилинди.

“Яшил макон” умуммиллий дастури доирасида ҳудудларда амалга оширилаётган кўламазорлаштириш ишлари, дарахт экиш ва парвариш-лаш ҳолати юзасидан ҳам масъулларга аниқ топшириқлар берилди.

Йиғилиш якунида барча раҳбар ва мутасаддиларга белгиланган вазифаларни ўз вақтида ва сифатли бажариш, аҳолининг ишончини оқлаш ҳамда ҳудудни янада ривожлантириш йўлида масъулятни ошириш зарурлиги алоҳида уқтирилди.

**Тoшкeнт вилoятлi ҳoқимлиги Ахборот хизмати**

## Вилоят буйлаб

**TOSHKENT viloyatida** aholi muam-molarini tekzor hal etish maqsadida «Xalq nazorati» platformasi ishga tushdi. Endilikda qurilish, uy-joy kommunal xizmatlari, toza ichimlik suvi, kanalizatsiya, isitish, elektar ta'minoti, transport va yo'l infratuzilmasi bilan bog'liq muammolar bo'yicha murojaatlar vakolatli idoralar tomonidan ko'rib chiqiladi.

**VILOYAT** Bojxona, Transport va Avtomobil yo'llari boshqarmalari xodimlari uchun “Jaholatga qarshi ma'rifat bilan” shiori ostida targ'ibot tadbirlari tashkil etildi. Unda so'zga chiqqanlar diniy bag'ranglik va millatlarga totuvlikni mustahkamlash, yet g'oyalari ta'sirga tushib qolmaslik, internet tarmoqlarida tarqatilyotgan soxta va g'arazli axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalalariga atroflicha to'xtildilar.

Viloyat hokimligi guruh rahbari Farhod Mirzayev hamda **QIBRAY tumani** hokimi Muzaffar Rashidov Baytqo'rg'on hududida faoliyat yuritayotgan fermer xo'jaliklari rahbarlari bilan dala boshida suhbatlashishdi. Muloqotda “Yashil makon” loyihasi doirasida hududdagi bo'sh va samarasiz yer maydonlaridan oqilona foydalanish, daraxt ko'chatlari ekish hamda yashil hududlarni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

O'zbek Milliy akademik drama teatrida Ijtimoiy himoya milliy agentligi **TOSHKENT viloyati** boshqarmasi hamda tuman va shaharlardagi “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi xodimlari uchun “Arshin mal alan” spektakli namoyish etildi. Bunday ma'naviy horidq asnosida tashkil etilgan uchrashuvlar ijtimoiy sohada faoliyat yuritayotgan xodimlarning ish samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

**CHIRCHIQ davlat pedagogika universitetida** “Kelajakka qadam” dasturi doirasida uchrashuv tashkil etildi. Unda talabalarni ish bilan ta'minlash, bugungi mehnat bozori talablari, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish, imtiyozli kreditlar olish tartibi hamda biznesni yo'lga qo'yish imkoniyatlari haqida batafsil ma'lumot berildi. Tadbir ochiq muloqot shaklida, qizg'in savol-javoblarga boy o'tdi.

**CHIRCHIQ shahri**ning “Nur” mahallasi hududida “O'zyo'lkoprik” klasteri DM tomonidan piyodalar uchun yer osti yo'li foydalanishga topshirildi. Mazkur yer osti yo'li hududda piyodalar harakati xavfsizligini ta'minlash, aholiga qulaylik yaratish hamda transport qatnovi yuqori bo'lgan hududlarda tirbandlikni kamaytirish maqsadida qurildi.

## ZAMONAVIY KADRLAR TAYYORLASHNING SAMARALI YO'LI

Bugungi globalashuv davrida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash har qanday davlat taraqqiyotining hal qiluvchi omiliga aylanmoqda. Shu ma'noda, ta'lim tizimiga xalqaro standartlarni joriy etish, ilg'or tajribalarni o'zlashtirish va qisqa mud-

datli o'quv kurslarini kengaytirish masalalari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, davlatimiz rahbari tomonidan ta'lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan farmon va qarorlar bugungi kunda o'zining amaliy samarasini bermogda. **▼ Ta'lim**

Jahon ta'lim tizimi jadal sur'atlarda rivojlanib borayotgan bir paytda, ta'lim sifatini oshirish va zamonaviy fikrlaydigan mutaxassislar tayyorlashda xalqaro hamkorlik muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, yoshlar uchun yaratilyotgan imkoniyatlar ularning bilim, ko'nikma va kasbiy mahoratini oshirishda katta ahamiyatga ega.

Olmaliq Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumida ham xalqaro ta'lim standartlarini joriy etish va xorijiy tajribalardan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunda ta'lim muassa-

sasi Xitoy, Germaniya, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Buyuk Britaniya kabi davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ygan. Mazkur hamkorlik doirasida o'qituvchilarning uchun malaka oshirish, tajriba almashish va ilg'or metodikalarni o'rganish imkoniyatlari yaratilgan.

E'tiborli jihati shundaki, muassasamizda har yili bir nafar pedagog-xodimni Xitoyga 144 soatlik bepul malaka oshirish kurslariga yuborish bo'yicha kelishuvga erishilgan. Shu bilan birga, Qirg'iziston Respublikasi O'sh davlat universiteti bilan tuzilgan shartnoma

asosida 24 nafar o'qituvchimiz xalqaro sertifikat olish maqsadida masofaviy ta'limda ishtirok etmoqda.

Jumladan, 2025 yil dekabrda mutaxassislik fani o'qituvchisi Charos Toshkenbo'yeva Xitoyning Chunsin shahridagi “Three Gorges” tibbiyot kollejiga malaka oshirish uchun borib keldi. Bu kabi safarlar nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash, balki dunyoqarashni kengaytirish, ta'limdagi innovasion yondashuvlarni chuqur o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, joriy yil fevral oyidan

boshlab muassasamizda “Uy hamshirasi”, “Sog'lomlashtiruvchi massaj”, “Ingliz tili” va “Kompyuter va raqamli texnologiya savodxonligi” kabi qisqa muddatli kurslar yo'lga qo'yildi. Ushbu kurslar tinglovchilarga amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni o'rganish, o'quv jarayonini muvaffaqiyatli yakunlaganlarga esa davlat namunasidagi sertifikatlariga ega bo'lish imkonini bermogda.

Albatta, xalqaro tajriba va qisqa muddatli ta'lim shakllari orqali o'ttirilgan bilim va ko'nikmalarni milliy ta'lim tizimiga tatbiq etish bugunning dolzarb vazifasidir. Zero, zamonaviy bilimiga ega, keng dunyoqarashli, mustaqil fikrlaydigan kadrlarga mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'sha oladi. Shu ma'noda, xalqaro ta'lim va qisqa muddatli kurslar – kelajak bunyodkorlarini tarbiyalashda mustahkam poydevor vazifasini o'taydi.

**Mahmud SAYIMOV,**  
**Abu Ali ibn Sino nomidagi**  
**Olmaliq jamoat salomatligi**  
**texnikumi direktori**



## Маданият ва спорт уйғунлашган маскан

Мазкур маскан Ангрэн шаҳридаги 3-сонли Дукент маданият маркази негизда ташкил этилган бўлиб, кўп йиллардан буён аҳолига хизмат кўрсатиб келаётган эди.

2025-2026 йилларда лойиҳа қиймати 31 миллиард сўмлик капитал реконструкция ишлари амалга оширилиб, замонавий қиёфага эга Янги Ангрэн маданият ва спорт саройи барпо этилди.

Очилиш маросимида сарой ҳовлисида амалий санъат ва хунармандчилик буюмлари кўргазмалари, дўстлик, ҳамжиҳатлик ва тинчлик гоёларини тарғиб этувчи расмлар танлови, “Меҳр-оқибат дастурхони” шиори остида турли миллатларнинг миллий таомлари намойиш этилди. Шунингдек, “Китоблар карвони” доирасида китобхонлик мушоираси ташкил этилди.

Шундан сўнг меҳмонлар бинода яратилган шарт-шароитлар билан танишишди. Жумладан, спорт зали, гимнастика хонаси, расмчилик ва доирачилар тўғрисидаги фаолияти кўздан кечирилди. Мажмуа таркибиде 32x20 ўлчамли спорт зали, фитнес ва шейпинг хоналари жойлашган. Иккинчи қаватда эса тасвирий ва амалий санъат, рақс, вокал, театр, фольклор ҳамда musiқа йўналишларидаги тўғараклар учун барча шароитлар яратилган.

Тадбир якунида концерт дастури намойиш этилди. Унда “Замин” халқ театри жамоаси томонидан буюк алломалар сиймоси гавдалантирилган сахна кўринишлари тақдим этилди.

Мазкур мажмуанинг фойдаланишга топширилиши аҳоли, айниқса, ёшларнинг спорт билан мунтазам шугулланиши, бўш вақтларини мазмулли ташкил этиши ҳамда миллий қадриятлар ва санъатни янада ривожлантиришга хизмат қилади. Замонавий маскан ҳудуд аҳолиси учун маънавий, маданият ва спортни бирлаштирган муҳим марказ бўлиши кутилмоқда.

Тадбир Наврўз сайлига уланиб кетди.

**Тoшкeнт вилoятлi ҳoқимлиги Ахборот хизмати**

## “Ақлли шаҳар”нинг замонавий маҳалласи

Хусусан, шаҳарнинг “Нурафшон” маҳалласида ҳозирда 1 минг 18 та хонадонда жами 3,6 мингдан ортиқ аҳоли истикомат қилади. Сўнгги йилларда амалга оширилган кенг қўламли бунёдкорлик ва ободонлаштириш ишлари натижасида маҳалла қиёфаси тубдан янгиланиб, аҳоли учун янада қулай ва замонавий яшаш муҳити шаклланди. Яқинда эса 250 қатновга мўлжалланган замонавий оилавий поликлиника, вилоят Қон қуйиш маркази, “Wonder Land” хусусий мактабгача таълим ташкилоти, “Grand Med Hospital” хусусий клиникаси, “Rodian textil” корхонаси ҳамда ёшлар учун замонавий “Workout” майдони барпо этилиб, фойдаланишга топширилди.

Очилиш маросимларида вилоят ва шаҳар мутасадди раҳбарлари, маҳалла фаоллари, депутатлар, нурунийлар, ёшлар ҳамда кенг жамоатчилик вакиллари иштирок этишди. Мазкур объектлардан, айниқса, вилоят учун стратегик аҳамиятга эга бўлган замонавий Қон қуйиш марказининг фойдаланишга топширилиши муҳим воқеа бўлди. Қарийб 18 миллиард сўм маблағ эвазига барпо этилган ушбу 4 қаватли марказ эндиликда

(Давоми. Бошланиши 1-саҳифада)



Тошкент вилоятидаги 22 та туман ва шаҳар тиббиёт муассасаларини қон ва унинг компонентлари билан узлуксиз таъминлай олади. Марказда донорлардан қон қабул қилиш, лаборатор текширув, қонни компонентларга ажратиш, махсус шaroитда сақлаш ва тиббиёт муассасаларига етказиб бериш жараёнлари тўлиқ автоматлаштирилган. Бу эса қон хавфсизлиги ва сифатини халқаро стандартлар даражасида таъминлашга хизмат қилади.

Шунингдек, маҳаллада ишга туширилган 250 қатновга мўлжалланган замонавий оилавий поликлиника ҳам аҳолига бирламчи тиббий-санитария хизматларини кўрсатишда муҳим аҳамият касб этмоқда. Янги муассаса

зиотерапия ва скрининг хизматларининг йўлга қўйилгани аҳоли учун тиббий хизматларни янада яқин ва қулай қилди. Қайд этиш жоизки, бунга қадар мазкур ҳудудлар аҳолиси бир неча чақириб йўл босиб Нурафшон шаҳридаги марказий кўп тармоқли клиникага боришга, у ерда турнақатор навбатларда со-



атлаб туришга мажбур бўлар эди. Энди эса бунга ҳоҳат қолмади.

Фойдаланишга топширилган объектлар орасида давлат ва хусусий сектор ҳамкорлигининг амалий намунаси бўлган “Grand Med Hospital” клиникасини ҳам алоҳида эътироф этиш лозим. Мазкур кўп тармоқ-

ли тиббиёт муассасаси халқаро талабларга тўла жавоб беради. Бу ерда терапия, кардиология, урология, гинекология, хирургия, травматология, неврология, педиатрия ва стоматология каби қатор йўналишларда замонавий хизматлар кўрсатилмоқда. Клиника замонавий ташхис ускуналари, жумладан, УТТ, ЭХО, ЭКГ аппаратлари билан жиҳозланган. Бу эса аҳоли учун тиббий хизмат турларини кенгайти-

риб танлов имкониятини оширади.

Маҳаллада замонавий та-лаблар асосида барпо этилган “Wonder Land” хусусий мактабгача таълим ташкилоти фаолияти-ни бошлагани ҳам катта янгилик бўлди. 80 нафар тарбияланувчини қабул қилиш қувватига эга мазкур муассасада болаларнинг жисмоний, маънавий ва интеллектуал салоҳиятини ўстириш учун барча зарур шароитлар яратилган. Богчада очик сув ҳавзаси, мини-футбол ва ўйин майдончалари, қишки бог, жонли бурчак ҳамда логопед, де-фектолог ва психолог хизматлари йўлга қўйилган.

Муассасада таълим-тарбия жа-раёнлари ўзбек, рус ва инглиз тил-ларида олиб борилади. Шунингдек, ментал арифметика, гимнастика, таэквон-до, теннис ва ми-ни-футбол тўғрисидаги ташкил этилган.

Маҳалла аҳлининг бандлигини таъмин-лашда ишлаб чиқариш объектларининг ўрни катта. “Rodian textil” тикув фабрикаси айнан шундай корхо-налардан. 2015 йилда ташкил этилган корхо-на бугунги кунда энгил санoат соҳасида за-монавий ишлаб чиқари-шни йўлга қўйган

йирик субъектлардан бирига ай-ланган. Айни пайтда бу ерда илғор хорижий технологиялар асосида футболка, болалар нимчалари, сумкалар ва турли бош кийимлар ишлаб чиқарилмоқда.

Энг муҳими, корхонада 568 на-фар фуқаронинг доимий бандлиги таъминланган. Бу эса аҳолининг даромадини ошириш ва маҳал-лада ижтимоий барқарорлиқни му-стаҳкамлашда муҳим омили бўл-моқда. Корхона маҳсулотлари асо-сан Россия Федерациясига экспорт қилинади. Хусусан, 2019-2025 йил-лар давомида 7,8 миллион АҚШ доллар ва 111,8 миллион Россия ру-бли миқдорига маҳсулот экспорт қилингани корхонанинг ташқи бо-зорда ҳам муносиб ўрин эгаллагани-ни кўрсатади.

**Ўткир ҲОШИМОВ,**  
**“Тошкент ҳақиқати” муҳбири**  
**Жалолиддин ЭСОНОВ**  
**олган суратлар**

# “Ижодкор учун энг катта тўсиқ – Қўрқув...”

Бугунги ўзбек адабиётида ўз овози, ўзига хос услуби билан ажралиб турган ижодкорлардан бири шоир Бобур Бобумуроддир. У нафақат қалами ўткир шоир, балки тарих илмини чуқур ўзлаштирган зиёли сифатида ҳам эътироф этилган. Унинг шеърларида замон нафаси, инсон қалбининг нозик туйғулари ва ҳаёт ҳақиқатлари уйғунлашган. Биз шоир билан ижод, илҳом, китобхонлик ва бугунги адабиётнинг долзарб масалалари ҳақида дилдан суҳбатлашдик.

– Бобур ака, аслида тарихчисиз. Шундай экан, сизни ҳам тарихчи, ҳам шоир деб аташга қандай қарайсиз?

– Албатта, ижобий қарайман. Шоир бўлишимда тарих фанининг ўрни катта. Тарихни чуқур билган инсоннинг сўз бойлиги ҳам табиий равишда ошади. Шу жиҳатдан, тарихчилик менга ҳамisha қўл келади. Айниқса, турли тадбирларда улғу аждодларимиз, тарихий шахсларимиз ҳақида саволлар берилади. Халқимиз тарихий ҳақиқатга ташна. Шундай пайтларда ишонч билан жавоб беришимга айнан тарих бўйича билимим ёрдам беради.

– Сизнингча, бугунги ўзбек шеър-иятида қилларнинг ўрни билинмоқда?

– Бугун ҳам қалами ўткир, сўзи салмоқли шоирларимиз кўп: Сирожиддин Саййид, Усмон Азим, Иқбол Мирзо, Махмуд Тоир, Рустам Мусурмон, Ўткир Раҳмат ва бошқалар. Аёл шoirлар ҳам фаол ижод қилишяпти. Ёш истеъдодлар етишиб чиқаётгани эса қувонарли.

Бироқ, барибир Абдулла Орипов, Эркин Воҳидов, Омон Матжон, Зулфияхоним, Мўхаммад Юсуф каби улғу

шоирларимизнинг йўқлиги ҳар доим сезилиб туради. Шунингдек, кучли адабий танқидчиларга ҳам эҳтиёж бор.

– Юртбошимиз қўлидан “Дўстлик” орденини қабул қилганингиздаги таассуротлар билан ўртоқлашсангиз.

– Давлат раҳбари қўлидан мукофот олиш ҳар бир инсон учун улкан шараф. Президентимиз орденини топширар эканлар: “Сизни ёшлар яхши кўради, ҳурмат қилади. Хали кўп учрашамиз”, деб айтдилар. Бу сўзлар мени руҳлантирди. Шу кун шeър ўқидим, нутқ сўзладим. Унутилмас кун бўлди. Ватанимизнинг юксак мукофотига лойиқ кўрилганим учун Юртбошимиз ва халқимиздан миннатдорман.

– Бир китобда ўқиган эдим, шеър барчага тушунарли тилда бўлиши керак, деган фикрларни. Сиз бунга қандай қарайсиз?

– Шеър – илҳом меваси. Уни қоллига солиб бўлмайди. Илҳом келди, у қандай бўлса, шундай қоғозга тушиши керак. Уни баҳолаш эса ўқувчининг иши.

Умуман, шеър ёзиш гишт қўйиш эмас. Унинг қоллиги йўқ. Илҳомни чеklang бўлмайди. У меҳмонга ўхшай-

ди: қандай келса, шундай қабул қилиш керак. Агар унга беэътибор бўлсангиз, у сизни тарк этади. Шоир учун илҳомни йўқотиш – омад қўшини қўлдан чиқариш дeмак. Шунинг учун айтаман: илҳом келди, ё! – Яхши шеър ёзишга нима тўсиқлик қилади?

– Энг катта тўсиқ – қўрқув. “Бу нима деркин, у нима деркин”, деб ёзмастик – ижод учун катта хато. Қўвонарлиси, бугунги ёшлар бундай қўрқувдан ҳоли. Шу боис халқ меҳрига сазовор бўлишмоқда.

– Ёшлиқда кутубхоначи бўлиши орзу қилган экансиз...

– Биринчидан, китоб ўқини яхши кўрганим учун. Иккинчидан, кутубхонада бўлсангиз, истаган вақтингизда мурола қила olasiz. Китоблар ичида мен худди ўзга дунёга тушиб қолгандек бўламан. Бу соҳани эгалламаган бўлсам-да, аммо орзуимга қисман эришдим деб ўйлайман. Қаерга ижодий учрашувларга борсам, китобхонлики тарғиб қиламан.

– Ҳозирда қайси китобни мурола қиласиз?



Бизнинг суҳбат

– Яқинда нашрдан чиққан “Бобур асарлари луғати”ни ўқиялман. Шу орқали сўз бойлигини бойитмоқдeман. Илҳомни китобдан оламан. Ижтимоий тармоқдан қанча кўп маълумот олмасин, китоб ўқимаган ижодкор янги сўз айтолмайди.

– Газета ҳақидаги фикрларингизни ҳам билмоқчи эдим...

– Онам ерда ётган газета парчасини ҳам авайлаб олиб: “Қоғознинг ҳам уволи бор”, дердилар. Менинг газеталарга муносабатим ижобий. Ижодкорни халққа танитган ҳам айнан оммавий ахборот воситалари. Ундан воз кечиш ўзлигидан воз кечиш билан баробардир.

– Ёш шoirларга қандай маслаҳат бeрасиз?

– Кўп китоб ўқинг. Бошқа йўл йўқ. Газета-журнал муролааси ҳам жуда фойдали. Энг муҳими, ўзингизга ишонинг. Илҳомни қочирманг, уни дарҳол қоғозга туширинг.

– Шоир бўлганингиздан ҳеч афсусланганингиз?

– Йўқ. Манглайман шундай тақдир битилганига розиман ва шукр қиламан.

– Суҳбатимиз якунида газетхонларга тилақларингиз?

– Ҳақиқатни тараннум этиб кeлаётган “Тошкент ҳақиқати”да ўқувчини ўйлантирадиган, фикрлашга ундайдиган мақолалар кўп бўлсин. Ҳақиқат йўлидан оғишманг. Газетхонлар эса уни ўқийдан толмасин. Алишер ТОИРОВ суҳбатлашди



- Muassis:  
**TOSHKENT VILOYATI HOKIMLIGI**
- “Toshkent haqiqati” va “Tashkentskaya pravda” gazetalarini tahrir hay'ati:
- Zoyir MIRZAYEV  
(tahrir hay'ati raisi)
- Abdusamad NOSIROV
- Ummat MIRZAQULOV
- G'afurjon MUHAMEDOV
- Sayyora FAYZIYEVA
- Abduvosit ABDURAZZOQOV
- Mahmud TOIR
- Azamat MIRZAYEV
- Uskenboy ATEMOV
- Abdulla XURSANOV
- Otabek SULTONBEKOV
- Kumush EGAMBERDIYEVA
- Olimjon BEGALIYEV
- Sergey MUTIN

Bosh muharrir o'rinbosari, nashr uchun mas'ul:  
**Suhrobjon SADIROV**

Mas'ul kotib:  
**Alloma AZIZOVA**

Ekspeditor:  
**Behruz NURBOBOYEV**

Qabulxona:  
(55) 520-64-95

Bosh muharrir o'rinbosari:  
(55) 520-04-10

Mas'ul kotib:  
(55) 520-05-10

Bo'lim muharrirlari:  
(55) 520-06-20, (55) 520-04-20

E'tonlar va hisob-kitob bo'limi:  
(55) 520-21-20

e-mail: toshkentshaqiqati@gmail.uz

Bosishga topshirish vaqti – 20:00.

Bosishga topshirildi – 20:00.

Nashr ko'rsatkichi – 205.

Buyurtma G-435.

8 378 nusxada chop etildi.

Hajmi – 2 taqob. Ofset usulida bosildi. Qog'oz bichimi A–2.

Bahosi kelishilgan narxda.

Toshkent viloyati Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasida

2011-yil 12-yanvarda

03-001 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Manzil:  
111500, Nurafshon shahri, Toshkent yo'li ko'chasi, 90.

Toshkent shahridagi ofisimiz: Bektemir tumani, Ittifoq ko'chasi, 2.

ISSN 2010-9318.

Gazeta «Toshkent haqiqati» tahririyati kompyuter markazida terildi va Tohir Mahmudxo'jayev tomonidan sahifalandi.

Haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

«SHARQ» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida bosildi.

Korxonaning manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

## ▼ Hadya

# MENGA YETIB KELMAGAN KITOB

Avval ishqning sharobi bilan,  
Devonayu mastga aylandim.  
So'ngra vaqtning surobi bilan,  
Hayronayu xasga aylandim.

Va men ketdim. Bo'zlashlardan  
El ichra bir tashbeh qolganmish:  
Qo'llaringda ko'z yoshlarimdan  
Yasalgan bir tasbeh qolganmish...



Bu didli shoir Nosirjon Jo'rayevning she'ri. Uch-to'rt kun avval ma'rifatparvar jadid bobolarning bugungi izdoshi bo'lgan noshir do'stimiz Nodir Suvonov iste'dodli ijodkor Nosirjon Jo'rayevning yangi chop etilgan "Imzo" deb nomlangan she'riy kitobini hadya qildi.

Shoir she'rlarini ijtimoiy tarmoqlar orqali deyarli kanda qilmay o'qib boraman. Lekin ularni kitobdan o'qishning gashitiga nima yetsin?

Nodirjonning aytishicha, avvalroq, bu kitob muallif dastxati bilan biz ishlayotgan idora manziliga maxsus yuborilgan ekan. Lekin, noma'lum sabablarga ko'ra bu kitob menga yetib kelmagan edi...

Hozir uch kundan beri xizmat stolimdan muqim joy olib turgan kitobni yana varaqlab, avval yuborilgan kitob nusxasi menga nega yetib kelmaganini o'zimcha tushmollagan bo'ldim. Yaxshi kitobning xaridori mo'l-da. Bilib bo'ladimi, pochta xizmatida ham toza va samimiy his'riyatning ixlosmandlari ko'p bo'lishi mumkin.

Nima bo'lganda ham kitob qo'limda. Yozgani uchun shoirni, chop etgani uchun noshirni duo qilib, o'qiyapman.

Darvoqe, u Yozuvchilar uyushmasi tavsiyasi bilan "Adabiyot" nashriyotida 2000 nusxada, krill va lotin alifbosida chop etilgan.

Bu kitobni Siz ham albatta o'qing!

G'. RAHMATULLAYEV

## ▼ Darvoqe

Toshkent viloyati toza xavosi, beba'xo manzaralari, s'lim tog'lari va xushxab maskanlari bilan nafaqat viloyat a'li, balki yurtimiz-

# ОМОНАТга хиёнат қилмайлик!

Ўтган дам олиш кунлари пойтахтликлар ҳамда бошқа viloyat-лардан ташриф буюрган фуқароларнинг севимли хордиқ чиқариш масканларидан бири бўлган Қизил тоғ худуди яна минглаб меҳмонларни қабул қилди. Бироқ бу сафар худуд ўзининг гўзал табиати ёки мусаффо хавоси билан эмас, балки дам олувчилардан қолган 1,7 тонна чиқинди билан эътибор марказига тушди.

Бир кунлик дам ортидан қарийб икки тоннага яқин чиқиндининг қолиши – табиатга бўлган муносабатимиз, дам олиш маданияти ва фуқаролик масъулиятимиз ҳақида жиддий ўйлашга ундайдиган аччиқ ҳақиқатдир.

Бугун дам олиш худудларининг ифлосланиши фақат бир ташкилот ёки соҳага масъул ходимларнинг муаммоси эмас. Бу – жамиятнинг умумий муаммоси. Чунки табиатни ифлос қилаётган ҳам, уни тозалаётган ҳам шу жамият вакиллари-дир.

Бир томонда кўнгиллилар, экология ходимлари, маҳаллий ташки-

лотлар худудни тозалаш учун меҳнат қилишмоқда. Иккинчи томонда эса айрим фуқаролар ўша жойга яна чиқинди ташлашмоқда. Бу эса битта ҳақиқатни кўрсатади: тозалашдан ҳам муҳимроғи – ифлос қилмасликдир.

Масалая холис назар ташланса, бундай нохуш ҳолатларнинг илдизи бир неча омилларга бориб тақалади. Энг аввало, айрим фуқароларда экологик маданият тўлиқ шаклланимаган. Шунингдек, баъзи дам олиш худудларида чиқинди қутилари етарли эмаслиги, назорат ва огоҳлантириш тизимининг сустлиги ҳам муаммони чуқурлаштиради. Энг ачинарлиси эса, айримларда ханузгача «мендан кейин барибир бошқалар тозалайди» деган лоқайд қараш сақланиб қолаётганидир.

Ҳолбуки, табиатни асраш катта шoirлардан эмас, энг оддий оdatлардан бошланади. Ўзинг билан олиб келган нарсаларни

нинг турли худудларидан кeлаётган сайёҳлар учун ҳам доим жозибадор маскан бўлиб келган. Айниқса, баҳор ва ёз фаслларида viloyat-нинг тоғолди ва дам олиш худудлари одамлар билан гавжумлашади.



йиғиштириб олиб кетиш, чиқиндини белгиланган жойга ташлаш, фарзандларга ҳам шу маданиятни синдириш – оддий кўринадиган, аммо ниҳоятда муҳим масъулиятдир. Зеро, табиатга ҳурмат, аввало, инсоннинг ўзидан бошланади.

Қизил тоғда бир кунда 1,7 тонна чиқинди тозалангани жиддий ҳулоса чиқаришга ундовчи ҳолатдир. Зеро, бу рақам дам олиш худудларимизга бўлган муносабатимиз ҳали ҳам талаб даражасида эмаслигини кўрсатади.

Энди масалага фақат тарғибот билан эмас, аниқ механизмлар орқали ендашиш вақти келди. Аввало, дам олиш худудларида чиқинди ташланганлик учун белгиланган жарималарни қайта кўриб чиқиш ва уларни сезиларли даражада ошириш зарур. Чунки амалиёт шуни кўрсатмоқдаки, жавобгарлик суст бўлган жойда тартиб ҳам мустаҳкам бўлмайди.

Шу билан бирга, бугун мамлакатимизда йўлга қўйилган экополиция фаолиятини айнан шундай дам олиш масканларида кучайтириш, уларнинг доимий рейдларини йўлга қўйиш муҳим аҳамиятга эга. Айниқса, дам олиш кунлари ва мавсумий гавжум пайтларда назоратнинг кучайтирилиши ижобий самара беради.

Бундан ташқари, худудларда видеокузатув тизимларини жорий этиш, чиқинди ташлаган шахсларни аниқлаш ва уларни жавобгарликка тортиш амалиётини кенгайтириш зарур. Бироқ масаланинг энг муҳим жиҳати шундаки, жазодан кўра огоҳлантириш, огоҳлантиришдан кўра эса шахсий масъулият устувор бўлиши керак.

Чунки тоғлар, сойликлар, яшил худудлар – бу бизга шунчаки фойдаланиш учун берилган бойлик эмас. Бу бизга аждодларимиздан омонат. Омонатга хиёнат эса ҳеч қачон оқланмайди.

Ўткир ҲОШИМОВ,  
“Тошкент ҳақиқати” мухбири

## ▼ Ёълонлар

# TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI TEZKOR TAYYORLOV KURSLARIGA QABUL BOSHLANDI!



Qayerda o'qishni hal qila olmayapsizmi? Unda e'tibor bering – sifatli ta'lim, kuchli ustozlar, qulay sharoitlar bizda!

Nega aynan TDAU tayyorlov kursini?  
Zamonaviy dars metodikalari  
Ustozlardan individual yondashuv  
Amaliy mashg'ulotlarga boy darslar  
Qulay to'lov tizimi  
Uzoqdan kelganlar uchun yotoqxon  
Abituriyentlar uchun eng optimal yo'll

– Har bir fanga (oyiga 400 000 so'mdan):  
\* Kimyo  
\* Biologiya

\* Matematika  
\* Fizika

– Chet tillari har bir fanga (oyiga 400 000 so'mdan):  
\* Ingliz tili  
\* Nemis tili

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy  
Bog'lanish: tuag\_info@edu.uz; www.tdau.uz  
+998 71 260-43-82; +998 71 260-46-80  
Koordinatlar: +998 95 079-64-63

O'qish bu yerda boshlanadi, kelajak esa siz bilan yoziladi!  
Joylar soni cheklangan – hoziroq ro'yxatdan o'ting!

# "XASANBOY SAVDO KOMPLEKSI" MЧЖ таъсисчилари диққатига!

"XASANBOY SAVDO KOMPLEKSI" masъuliyati cheklangan jamiyatining 2025 yilgi moлия xўжалик faoлияти бўйича таъсисчиларнинг йиллик ҳисобот мажлиси 2026 йил 8 апрель куни соат 16:00 да ўтказилади.

Мажлисга барча таъсисчилар таклиф қилинади. Манзил: Тошкент viloyati, Тошкент тумани, Ҳасанбой МФЙ, "XASANBOY SAVDO KOMPLEKSI" MЧЖнинг маъмурий биноси. Кузатув кенгаши

Асрлар оша Шайх Умар Богистоний, Ҳожа Аҳрор Валий, Абу Бакр Шоший, Абу Сулаймон Банокатий каби азиз авлиё ва алломаларга бешик бўлган бу макон. Айниқса, улуг аллома Занги ота номи билан аталган Ойхўжа ибн Тошхўжадек муборақ зотнинг Тошкент вилоятидаги зиёратгоҳи мусулмон оламида машҳур.

Аслида, яратувчанлик, бунёдкорлик вилоят аҳлининг қонида бор, десак янглишмаймиз. Зотан, давлатимиз раҳбарининг "Мендан Тошкент вилоятининг энг катта бойлиги нимада, деб сўрасангиз, ҳеч иккиланмай, юксак маданиятли, оқу қорани таниган, омилкор ва меҳнаткаш, ишнинг кў-

Кейинги йилларда 10 миллиард доллардан ортқ ҳудудий, 8 миллиард долларга тенг тармоқ инвестициялари киритилиб, 10 мингга яқин саноат, савдо ва сервис корхоналари ишга туширилди. Охириги 3 йилда йиллик айланмаса 10 миллиард сўмдан кўп бўлган корхоналар сони қарийб икки каррага кўпайиб, 1,7 мингтадан ортди. Айланмаса 100 миллиард сўмдан юқори бўлган корхоналаримиз эса 200 тага кўпайди.

Давлатимиз раҳбари ташаббуси билан тузилган "Ислохотлар штаби" реал натижадорликни янада оширишда яқин кўмакчи бўлмоқда.

Бугун Тошкент вилояти хорижлик ва

дамдан кўра одамларни касбга йўналтириш, иш ўрни ва барқарор даромад манбаи яратиш орқали фаровонликка олиб чиқиш – энг тўғри йўл экан.

#### НАСИБАСИ БУТҲУН ЭЛ

Сўнгги йилларда глобал иқлим ўзгаришлари, табиий офатлар, ер ва сув ресурслари тақчиллиги, халқро микёсдаги иқтисодий тебранишлар қишлоқ ҳўжалигимизда ҳам жиддий сино ва машаққатларни юзга келтирмоқда.

Қишлоқ ҳўжалигига берилётган имтиёз ва эътиборлар, илғор технологиялар ва илмий ёндашувлар, ер билан "тиллашиб"

вардида, ҳар гектарда камида 6 минг доллардан даромад олиш баробарида, тармоқда 210 мингта доимий ва мавсумий иш жойи яратишни мақсад қилганмиз.

#### САЙЁҲЛАР УЧУН ТАШРИФ ҚОҒОЗИ

Бу ерда кўкламда – баҳорнинг тароватини, жазирамада – ёзнинг ҳароратини, ҳазонрезгида – кузнинг малоҳатию қишда – қишнинг ҳаловатини туйиш мумкин. Шундай манзилларимиз ҳам борки, уларда бир фаслда тўрт фаслнинг жамоли жилва қилади. Айниқса, Бўстонлик, Паркент, Оҳангарон, Ангрндаги тоғу адирлар, са-

кил этилишининг ўзи билан бу ерда туристлар оқими ҳамда хизматлар экспорти 5 баробар ошгани сайёҳлик лойиҳалари нақадар истиқболли бўлганидан далолатдир.

Бундан ташқари, Паркент туманида Олтинбел мажмуаси, Оҳангарон туманида Овжасой, Эртошсой, Жиблонсой, Оҳангарон сув омбори бўйлари ҳамда Ангрн шаҳри, Янгибод, Лашкарар ва Дукентсой ҳудудларида ҳам йирик туризм зоналари ташкил этилмоқда.

Дарвоқе, дарёлар бор жойда чироқ ўчмайди. Угом дарёсида янги барпо этилган гидроэлектр станцияси ҳудуддаги "Чорбоғ", "Хумсон" ва "Угом" маҳаллаларидаги 5 мингта хонадон ҳамда туризм ва дам олиш масканларини узлуксиз электр энергияси билан таъминлаш имконини берди.

Бу борада Чотқол, Кўксув, Писком, Угом дарёлари имкониятларидан фойдаланиш бағоят муҳим аҳамият касб этди. Ҳозир вилоятимизда умумий қуввати 1 минг 330 мегаватт бўлган 25 та гидроэлектр станцияси ишлаб турибди. Бугунги кунда қиймати 880 миллион доллар ва қуввати 340 мегаватт бўлган яна 4 та ГЭС қурилмоқда. Умуман, 2028 йилгача вилоятда умумий қуввати қарийб 2 минг 400 мегаватт бўлган 4 миллиард 800 миллион долларлик 23 та лойиҳа амалга оширилади.

Бир пайтлар "Тошкентнинг тарифини еган чумчуқ Маккадан қайтиб келади", деган гап бўларди. Энди бу иборани бемалол шундай тахрирда қайта кўлласса бўлади: "Тошкент вилоятига келган хорижлик меҳмон фақат саяҳат қилмайди – у битмас илҳом, туғанмас куч тўплайди ва яна келиш истаги билан қайтади..."

#### ИҚТИСОДИЙ ДИПЛОМАТИЯНИНГ ЯНГИ МОДЕЛИ

Президентимиз раислигида Ташқи ишлар вазирлиги ҳамда хориждаги дипломатик ваколатхоналар фаолияти масалалари бўйича ўтказилган йиғилишда бутунлай янги ҳақиқатлар белгилаб берилди. Шу тариқа ҳудудлар билан дипломатик ваколатхоналар ўртасида янги ҳақиқатлар модели – "Элчи + ҳоким" тамойили шаклланди. Бу тизимда ҳоким ҳудуднинг аниқ эҳтиёжлари, устувор лойиҳалари ва мақсадли йўналишларини белгилаб беради, элчи эса хорижда базор, сармоа ва ишончли ҳамкор топишда кўмаклашади.

Юртимиздаги очикчилик сиёсати ва ишончли ҳамкорлик муҳити натижасида вилоятимиз дунёнинг 106 та давлати билан савдо алоқаларини йўлга қўйган.

Айни пайтда воҳода хорижий инвестициялар иштирокида 2 минг 402 та корхона фаолият юрляпти. Шундан 495 таси кўшма, 1 минг 907 таси тўлиқ хорижий капитал асосида ташкил этилган.

Дарвоқе, йил бошида Бўстонлик туманида мамлакатимизнинг хорижий давлатлардаги элчилари иштирокида махсус иқтисодий форум ташкил этилди. Унда асосий ургуни ҳудудларимизнинг инвестициявий жозибдорлигини кенг тарғиб этиш, элчилар воситачилигида хорижий давлатлар билан ҳамкорлик алоқаларини янада ривожлантиришга қаратдик. Вилоятимиздаги мавжуд имкониятлар, лойиҳалар муфассал баён этилган махсус китоб тайёрланган эди, элчиларимизнинг ҳар бирига шу китобдан улашдик.

Дипломатлар билан фаол мулоқотга киришган бизнес эгалари, туман ва шаҳарлардаги ҳокимларимиз экспорт, инвестиция, молиявий дастур ва грантларга тааллуқли қўллаб-қувватлашга ечим топди.

Мақсадимиз – жаҳон инвестиция харитасида Тошкент вилоятининг ўрнини беқеъс даражада кенгайтиришдир. Шу мақсадда охириги бир йил ичида 10 га яқин хорижий давлатда бўлиб, ташқи иқтисодий ҳамкорлик бўйича муҳим амалий қадамлар ташладик. Айниқса, АКШ, Россия, Саудия Арабистони каби мамлакатларга қилган сафарларимиз самарали келишувларга бой бўлди.

Филадельфия, Жидда, Варшава шаҳарларида иш бошлаган Тошкент вилояти маҳсулотлари омборхоналари ва тақсимлаш-савдо мажмуалари вилоятимиз экспортчилари учун катта имкониятлар майдонига айланди.

Халқимизда "Пок ниятлар билан бошланган ҳар қандай хайрли иш, албатта, ижобат бўлади", деган ҳикмати гап бор. Ҳар бир соҳада давлатимиз раҳбарининг сиёсий иродаси ва азму шижоати билан ҳаётга татбиқ этилаётган ислохотлар қутилганидан ҳам аъло самаралар бераётганининг ўзак илдизи ҳам шунда. Бу сайёҳаракатлар, энг аввало, пок ниятга – халқимизнинг тинчлиги, гурури ва қадр-қимматини юксалтиришга, одамларни рози қилиш, ҳар бир инсоннинг эркин ва фаровон, бахтли-саодатли ҳаёт кечиршини таъминлашга қаратилган.

Ҳаммамиз яхши тушунамиз, бундай улуг мақсадларга ўз-ўзидан, қуруқ ва баландпарвоз гаплар билан эришиб бўлмайди. Бундай марралар фақат тинимсиз, ҳалол ва фидоқорона меҳнат билан қўлга киритилади.

маний сув омборлари, турнакўз булоқлар, дала ва боғлар таровати, қадимий манзилгоҳлардаги осориатқалар, ҳудудий брендга айланб бораётган таомлар, замонавий хизмат ва адреналинли саргузаштлар ҳеч кимни бефарқ қолдирмайди.

Воҳамиздаги деярли барча туризм манзилларининг ўз зийнати ва фазилати, бошқача айтганда, сайёҳлар учун "ташриф қоғозлари" бор. Сўнгги бир йил ичида вилоятга 1 миллион 532 минг нафар хорижий ва 19 миллион 350 минг нафар маҳаллий сайёҳ ташриф буюрди. Туризм хизматлари экспорти 438 миллион долларга етди.

Вилоят бўйича 30 дан зиёд турмаршрут ишлаб чиқилган. 20 дан ортқ маданий-кўнгилочар тадбирлар мунтазам ташкил этилади. "Илоқ", "Узумчилик ва вино", "Сўқоқ таомлари", "Пахташум Фарҳод", "Импульс", "Чимён садоси" каби фестивал ва мусобақаларни хорижда ҳам яхши билдилар.

Москвдан Майамгача, Дехлидан Сеулгача ўтказилган тақдимотлар орқали вилоят туризм салоҳияти халқро сарҳадларга етиб борди. Хориж матбуоти, блогерлар ва йирик туризм компаниялари вакиллари учун ташкил этилган инфо-турлар натижасида тарғибот материалларимиз 450 миллионлик аудиторияни қамраб олди.

Эндиликда пойтахтдан тоғли ҳудудларга етиб бориш янада қулайлашди: "Тошкент–Чиноркент–Тошкент" тезорар поезди қатнови йўлга қўйилди, Чорвоқ ва бошқа масканларга туристик автобус йўналишлари очилди. Паркентга поезд келяпти.

Амирсой, Чиноркент, Чорвоқ дарвозаси каби улкан мажмуалар, замонавий меҳмонхоналар, дам олиш ва умумий овқатланиш масканлари ишга туширилди. Франциянинг "MND" компанияси билан ҳамкорликда "Чимён" халқро умуммавсумий курорти барпо этилмоқда. Лойиҳа учун 1 минг 278 гектар майдон ажратилган бўлиб, қатор меҳмонхоналар ва денгиз сатҳидан 3 минг 300 метр баландликкача "осма дор йўли"ни қамраб олган. Эндиликда қишда чанги ва сноуборд, бошқа ойлларда эса, тоғ сайёҳлиги ва кўнгилочар ҳордиқ чиқариш имкониятлари пайдо бўлди.

Лойиҳа доирасида автомобиль йўлида туннель ҳам очилди. Ушбу ишоот таркибига узунлиги 1 минг 450 метр бўлган асосий йўл қисми, 2 та кўприк ва пиёдалар йўлақлари қиради. Бу ерда иш бошлаган 6 қаватли замонавий меҳмонхона 320 нафар сайёҳни қабул қилиш имкониятига эга.

Ҳудуддаги яна бир йирик лойиҳа доирасида 7 ва 5 қаватли апартаментлар, 7 қаватли меҳмонхона ҳамда 2 қаватли ресторан ҳам барпо этилди. Угом дарёси бўйида эса 17 та кўп қаватли уй қад ростлади. Шунингдек, 16 та коттеж, 3 та ресторан, ўттиздан ортқ савдо ва хизмат кўрсатиш шохобчалари иш бошлади. Болалар ўйингоҳлари, ёпиқ сув ҳавзаси, фитнес ва спорт майдончалари, амфитеатр, автотурагоҳ, автомобиль кўприги, тоғ ва соҳилбўйи йўлақлари сайёҳларга беқеъс қулайликлар яратмоқда.

Умуман, Чорвоқ эркин туристик-рекреацион зонаси, "Белдирсой–Чимён–Нанай" халқро умуммавсумий курорти таш-



# ОБОДЛИК ВА ТАРАҚҚИЁТ ЛОКАЦИЯСИ

Зойир МИРЗАЕВ,  
Тошкент вилояти ҳокими, сенатор

## Тошкент вилояти:

# ОБОДЛИК ВА ТАРАҚҚИЁТ

## ЛОКАЦИЯСИ



зини биладиган аҳил ва ҳамжиҳат кўп миллатли халқи, деб айтган бўлардим", деган гаплари ҳам бу фикрни тўла тасдиқлайди.

Кечагидек ёдимизда – давлатимиз раҳбари Янги Ўзбекистонни барпо этиш гоёсини илгари сурган илк даврлардаёқ вилоят фаоллари билан бамаслаҳат ҳолда Тошкент вилоятининг маъмурий марказини белгилаб, янги Нурафшон шаҳрига асос солган эдилар.

Бу тарихий қадам маҳаллий бошқарувни самарали ташкил этиб, ҳудуднинг меҳнаткаш ва бағрикенг аҳолиси бошини бир мақсад йўлида бирлаштирганга бугун барчамиз гувоҳ бўлиб турибмиз.

Қисқа фурсатда вилоят маркази замонавий бинолар, маъмурий, ижтимоий иншоотлар, уй-жойлар ва хизмат кўрсатиш объектлари қурилиши ҳисобига бутунлай янгидан чирой очди ҳамда бу жараён хануз давом этмоқда.

Қурилаётган ҳар бир объектнинг бетақдор меъморий ечимга эга бўлишига алоҳида эътибор қаратиляпти. Бунга мисол қилиб вилоят театри, марказий кутубхона ва мухташам сузиш ҳавзаси лойиҳаларини келтириш мумкин.

Яқин-яқингача вилоятда ягона олий таълим дароҳи – Тошкент давлат аграр университети мавжуд эди. Бугунги кунга келиб, бундай муассасалар сони 15 тага етди. Уларда салкам 75 минг талаба таълим олмоқда.

Бу ҳақда гап борганда, биргина Нурафшондаги "Cyber" университетини мисол келтириш мумкин. У глобаллашув даврининг энг муҳим соҳалари – ахборотни ҳимоялаш, киберхавфсизлик, рақамли технологиялар ва рақамли иқтисодиёт, сунъий интеллектга асосланган автоматлаштирилган ахборот-таълимий тизимларини яратиш, робототехника ҳамда бошқа турдош соҳалар бўйича малакали кадрлар тайёрлашга ихтисослашган. Замонавий таълим кампуси, киберхавфсизлик лабораториялари, етакчи хорижий ва маҳаллий компанияларда амалиёт ўташ имкониятлари талабаларга беқеъс қулайликлар туғдирмоқда.

#### ФАРОВОНЛИКНИНГ МУҲИМ КАФОЛАТЛАРИ

Маълумки, вилоятимиз юртимиздаги энг йирик истеъмол ва хизматлар бозорини, яъни пойтахтимизни ҳар томондан ўраб туради. Мамлакатимиз ялпи ички маҳсулотининг қарийб 10 фоизи айнан Тошкент вилояти ҳиссасига тўғри келади.

Бугун ялпи ҳудудий маҳсулот ҳажмининг 180 триллион 177 миллиард сўмга етгани вилоят иқтисодиёти мустаҳкам пойдеворга қурилаётганидан далолат беради.

(Давоми. Бошлангич 1-саҳифада)

маҳаллий ишбилармонлар тарафидан бизнес учун энг қулай имкониятлар ҳудуди сифатида эътироф этилмоқда. Хусусан, бу ерда тадбиркорликни йўлга қўйиш учун мавжуд 2 минг 821 гектар бўш ер майдонлари, 71 та саноат зонаси, 50 дан ортқ давлат активлари, етарли меҳнат ресурслари, шунингдек, қулай йўл-транспорт, логистика, коммуникация инфратузилмалари мавжуд.

Қолаверса, замонавий, мухташам аэропортнинг тамал тоши қўйилди. Яқин келажакда вилоятнинг барча ҳудудлари пойтахт билан тезкор электр поезидлар орқали боғланади. Бу жараёнда, ўз-ўзидан, қўллаб-қувватлаш мақсадида янги уй-жойлар, инфратузилма ва хизматларга талаб ортқиш табиий.

Шунга мувофиқ, ўтган йили қурилиш ишларининг умумий ҳажми **10 фоизга ўсиб, 33 триллион 987 миллиард сўмга етди**. Бу воҳамиз улкан бунёдкорлик майдонига айланб бораётганидан далолатдир.

Давлатимиз раҳбари илгари сурган гоёга асосан "Менинг биринчи уйим" лойиҳаси ҳам айнан вилоятимиздан бошланиб, кенг оммалашди.

Умуман, 2025 йили бу ерда жами **1 миллион 997 минг квадрат метрдан ортқ** тураржойлар фойдаланишга топширилди. Эътиборлиси, қурилган уй-жойларнинг катта қисми – **1 миллион 498 ми квадрат метрдан зиёди** қишлоқ ҳудудларида барпо этилди.

Хабарингиз бор, юртимизда камбағалликка қарши курашишда муаммони яшириш эмас, уни очик тан олиш ва манзилли ечим топиш йўли танланди.

Масалан, вилоятимизда 38 мингдан ортқ оила реестр асосида тоифаларга ажратилган ҳолда қўллаб-қувватланмоқда, 7,5 мингдан зиёд камбағал оила билан эса раҳбар ходимларни бириктирган ҳолда индивидуал ишляямиз. Натижада ушбу хонадонларга 148 мингдан ортқ хизмат ва амалий ёрдам кўрсатилиб, уларнинг барқарор даромад манбаига замин яратилди.

Оилавий тадбиркорлик ва кичик бизнесни қўллаб-қувватлаш дастурлари доирасида ўтган бир йилда 982 миллиард сўм кредит ресурси йўналтирилиб, 31,8 минг нафардан ортқ аҳолининг бандлиги таъминланди. Қишлоқ жойларда "Бир ҳудуд – бир маҳсулот" тамойили томорқадан самарали фойдаланиш имкониятини оширмоқда.

Бу ишлар, ўз-ўзидан, меҳнат бозорида ҳам ижобий динамикани намоён қилмоқда: қисқа даврда 323,1 минг нафар қишқин бандлиги таъминланиб, ишсизлик 5,7 фоиздан 4,8 фоизга тушди.

Реаллик шуни кўрсатяптики, тайёр ер-

келатган заҳматкаш деҳқонларимизнинг азму шижоати туфайли юртимиз қишлоқ ҳўжалигида мисли қўрилмаган натижаларга эришиляпти.

Вилоятда қадимдан шаклланган боғдорчилик ва зироатчилик мактаби бор. Бу ҳақда гапирганда, шу заминдан етишиб чиққан халқ селекционерлари – "Ризамат" туркумидаги узум навлари муаллифи Ризамат Мусамуҳаммедов, лимоннинг ўндан ортқ турларини илк бор маҳаллийлаштирган Зайниддин Фахриддинов, помидорнинг "Юсупов" навини яратган Карим Юсупов, боғдорчилик илмининг академиги Маҳмуд Мирзаев номларини хурмат билан тилга оламиз.

Қувонарлиси, илгари аграр соҳанинг қўллаб-қувватлаш намуна бўлиб келган Тошкент мактаби аънавалари бугун қайта доврўқ таратмоқда. Ўтган йил эришилган натижалар шундай дейишга тўла асос бўлади.

Хусусан, эл-юрт хирмонига 206 минг тонна пахта, 828 минг тонна дон етказиб берилди. Тарихда биринчи бор 71 нафар фермер пахта ҳосилдорлигини 60 центнердан, 130 нафарга яқин фермер эса, ғалла ҳосилдорлигини 100 центнердан оширишга муваффақ бўлди.

Икки минг тоннадан зиёд "қумуш тола" етиштирилиб, 17 миллион долларлик қисми экспорт қилинди. Сабзавотчилик, боғдорчилик ва полизчиликда ҳам барқарор ўсиш кузатилди. Чорвачилиқта 841 минг тонна сўт, 260 минг тонна гўшт, 1,1 миллиард дона тухум тайёрланди.

Бўстонлик, Қибрай, Тошкент, Қуйи Чирчиқ, Паркент, Оҳангарон туманларида 65 гектар майдонда голубика, 125 гектарда малина, 650 гектар ерда қўлпўнай етиштириш йўлга қўйилди. Ушбу экинлардан даромад гектарига ўртача 30 мингдан 90 минг долларгача етди.

Жумладан, Бўстонлик туманининг "Чимён" маҳалласида 3 минг гектар майдонда малина, голубика, қўлпўнай, ўрмон ёнгоғи каби меваларни етиштириш бўйича мега лойиҳа амалга оширилмоқда. Унинг умумий қиймати 60 миллион доллардан ортқи. Қир-адирларга Чорвоқ денгизидан 12 километр масофадан сув тортилиб, мевани қайта ишлаш корхоналари ҳамда катта сифимли омборхоналар ташкил этилмоқда.

Биргина 2025 йилнинг ўзида **2 минг 150 гектар интенсив боғ ва тоқзорлар** барпо этилди. Оҳангаронда 150 гектар, Бекободда 126 гектар, Чинозда 36 гектар "Аватар" навли интенсив узум плантациялари вужудга келди.

Дала четларида қўшимча 412 миллиард сўмлик 55 минг тонна маҳсулот етиштирилди. Ариқ-зовурларда 148 нафар тадбиркор томонидан 500 минг бош ўрдақ қоқиш йўлга қўйилди. 210 минг тонна мева-сабзавот хорижга сотилди.

Нафақат вилоятимиз, балки пойтахтимиз аҳлини ҳам сифатли қишлоқ ҳўжалиги маҳсулотлари билан барқарор таъминлаш масъулиятини бир зум ҳам унуттишга ҳаққимиз йўқ. Буни чуқур ҳис қилган ҳолда, 2026 йилда ҳосил ҳажминини кескин кўпайтириш, янги инновацион лойиҳа ва дастурларни белгилаб олдик.

Насиб этса, бу йил аграр соҳада ялпи маҳсулот ҳажмини 7,2 миллион тоннага (ёки 28 триллион сўмга) етказамиз. Пиро-

Авлиё бобимиз Ҳожа Аҳрор Валий айтганларидек: **"Шоядқи дейиш билан иш битмас, ғайрату ҳиммат қилмай, оруз билан ҳеч ким бир ерга етмас".** Шундай экан, ҳозирги кунда олдимизда турган ўта масъулиятли мақсад ва вазифалар барчамизни уйғотмоғи, янада кўпроқ фаоллик ҳамда сафарбарликка даъват этмоғи лозим.